

J.A.Karimov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Geodeziya, kartografiya va kadastr kafedrası o'qituvchisi.
O'zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati, Urganch shahri

KADASTR SOHASIDA GEOAXBOROT DASTURLARI IMKONIYATLARIDAN KENGROQ FOYDALANIB MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH VA TAHLIL QILISH

Annitatsiya. Maqolada zamonaviy GAT dasturlarida ko'chmas mulk obyektlari ma'lumotlari bazalari bilan ishlash metodlari, katta hajmdagi atribut ma'lumotlarning ayrim turlarini tanlab olish to'g'risida ma'lumotlar hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Geoaxborot tizimlari, Geofazoviy ma'lumotlar, Ko'chmas mulk obyektlari, Atribut ma'lumotlari, Davlat kadastrlari yagona tizimi, ArcGIS dasturi.

J.A.Karimov

Teacher, Department of Geodesy, Cartography and Cadastre, Urgench State
University named after Abu Rayhan Beruni.
Republic of Uzbekistan, Khorezm Region, Urgench City

MANAGEMENT AND ANALYSIS OF DATA IN THE FIELD OF CADASTRE THROUGH WIDER USE OF GIS SOFTWARE CAPABILITIES

Abstract. The article provides information and practical recommendations on methods for working with real estate object databases in modern GIS software, as well as on the selection of certain types of large-scale attribute data.

Keywords: Geographic Information Systems, Geospatial Data, Real Estate Objects, Attribute Data, Unified State Cadastre System, ArcGIS Software.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari har bir sohaga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylandi. Shu qatorda hozirgi kunda Geoaxborot tizimlari ham jamiyatning turli sohalariga kirib bormoqda.

Geoaxborot tizimlari –asosiy vazifalari bu fazoviy-geografik ma'lumotlarini to'plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat bo'lgan mutaxassis tahlilchilar boshqaruvi ostidagi umumlashgan kompyuter tizimidir.¹


¹ Boltayev T.X., Raxmonov Q., Akbarov M.S. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari//Toshkent: 2015. 6 b

Uning rivojlanib borishi natijasida nafaqat texnik sohada balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki Geoaxborot tizimlari (GAT) geofazoviy ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish va tasvirlashga mo'ljallangan kompyuter dasturi hisoblanib, u orqali mazkur ma'lumotlarni voqealar, hodisalar, faoliyat yoki undagi tafsilotlar bilan birga, ularning qayerda mavjudligi ya'ni geografik joylashuvini tasvir, jadval orqali aks ettirish imkoniyati mavjud.


Shuningdek, ko'chmas mulk obyektlarining ma'lumotlarini boshqarish, to'plash hamda tahlil qilishda Geoaxborot tizimlari dasturi hisoblangan ArcGis dasturining ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida "Davlat kadastrlariga doir axborot davlat hokimiyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi" deb belgilangan. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda respublikamizdagi barcha turdagi ko'chmas mulk obyektlarining ma'lumotlarini, viloyat, tuman hududida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarining atribut ma'lumotlarini boshqarish, tahlil qilish va ma'lum kategoriyaga ega tegishli obyektlarni tanlab olish masalalarini yechishda ArcGis dasturi imkoniyatlaridan foydalanilsa ma'lum darajada samaradorlikka erishiladi. Vaholonki, hozirgi kunda bunday ma'lumotlar bilan ishlash, statistik tahlillarni amalga oshirish uchun juda qulay dasturlar mavjud lekin har bir ma'lumot, obyekt, jarayonning aynan qaysi geografik o'rinda ekanligi muhim hisoblanadi.

Ma'lumki "2016-2017-yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-avgustdagi 251-sonli qaroriga asosan yalpi hatlov o'tkazilib respublikamizdagi yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulk obyektlari ma'lumotlari bazasi va ArcGis dasturida Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibidagi yer va bino inshootlar kadastrlari ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Demak, ma'lumotlar bazasining hajmi katta ekan undagi zarur ma'lumotlarni tanlab olish, boshqarish va tahlil qilishga ehtiyoj paydo bo'lishi tabiiy.

ArcGis dasturida atribut ma'lumotlarini tanlab olish "Выбрать по атрибутам" (Atributlar bo'yicha tanlash) yoki "Определяющий запрос" (Ta'rif so'rovi) bo'limlari orqali amalga oshiriladi. Bularning bir-biridan farqi shundaki "Определяющий запрос" (Ta'rif so'rovi) bo'limida tanlangan ma'lumotlardan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilmaydi. "Выбрать по атрибутам" (Atributlar bo'yicha tanlash) bo'limida esa boshqa obyektlar ham ko'rsatiladi lekin tanlangan ma'lumotlar alohida qilib tasvirlanadi. ArcGis dasturida ushbu bo'limlarga quyidagi tartibda kiritiladi. (1-rasm va 2-rasm)




1-рasm. Определяющий запрос.
(Ta'rif so'rovi)



2-рasm. Выбрать по атрибутам.
(Atributlar bo'yicha tanlash)


Bugungi kunda amaliyotda davlat tashkilotlari va muassasalari bilan tez-tez uchrab kelayotgan ma'lumotlar almashish jarayonlaridan misol qilishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 420-moddasiga asosan 42 million so'mdan kam baholangan ko'chmas mulk obyektlari yoki ularning aynan bitta mahalla, yuridik yoki jismoniy shaxslar, kesimda ma'lumotlarini va geografik joylashuvini olish va tahlil qilishni ArcGis dasturidan foydalanib bajarilishini keltirib o'tamiz. Bunda ikkita yoki undan ko'proq ustundan malumotlarni filterlash zarur bo'ladi va "AND" buyrug'idan foydalaniladi va quyidagi tartibda kiritiladi. (3-rasm)



3-рasm. "AND" buyrug'idan foydalanish.

Ushbu 3-rasmda keltirilgan amallar bajarilganidan keyin jismoniy shaxslarga tegishli 42 milliondan kam baholangan obyektlarni alohida ajralgan holdagi tasviri yoki jadval shaklida ham ma'lumotlarni qabul qilish mumkin.


O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 68¹-va 160-moddasiga asosan ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar o'z vaqtida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim va ushbu ma'lumotlarni olishda to'g'rdan-to'g'ri “=” buyrug'idan foydalanib “Получить значения” qismidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni ushbu buyruq ustundagi “mavjud emas” qismining ma'lumotlarni topadi va ushbu usul quyidagi tartibda bajariladi.(4-rasm)



4-rasm. “=” buyrug'i orqali ma'lumotlarni tanlash.

Mazkur 4-rasmdagi ishlar bajarish orqali ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan obyektlarni va ularning boshqa ma'lumotlarini alohida ajralgan tasviri olishimiz mumkin.

Bundan tashqari Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi hodimlar uchun ma'lumotlar bazasida Notarial tartibda rasmiylashtirilgan huquqiy hujjatlarni va ularning ayrim turlarini tanlab olishda foydalanish mumkin. Bu ma'lumotlarini olishda “LIKE” buyrug'idan foydalanish lozim. Ushbu buyruq bilan zarur malumotlar “so'zlar” orqali aks ettiriladi. Masalan “Oldi-sotdi shartnomasi”, “Hadya shartnomasi” bularda umumiy bo'lgan “shartnoma” so'zi mavjud va shu so'z qatnashgan obyekt ma'lumotlarini tanlab olish mumkin. (5-rasm)



5-rasm. "LIKE" buyrug'idan foydalanish.

Yuqorida 5-rasmda keltirilgan tartibda amallar bajarilganidan keyin kerakli hududdagi notarial tartibda rasmiylashtirilgan huquqiy hujjatlar mavjud obyektlarni geografik joylashuvi bo'yicha tasvirini va jadval ma'lumotlarini olish mumkin.

Shuningdek ko'chmas mulk obyekti toifalari (turar joy, noturar joy va yer uchastkalari), ularning parametralari va boshqa ma'lumotlarini ham yuqoridagi misollar asosida tanlab olish, tahlil qilish va boshqarish mumkin.

Xulosa. Geoaxborot tizimlarining imkoniyatlari bugungi kunda tegishli sohalarning rivojlanishida ish samaradorligini oshirishda, ma'lumotlarni tezkor taqdim qilishda muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan maqolada keltirilgan ma'lumotlarni tanlab olish, tahlil qilish va boshqarish bo'yicha keltirilgan misollardan nafaqat ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha mutaxassislar balki boshqa ishlab chiqarish sohasi mutaxassislari ham foydalagishlari mumkin. Ilmiy tadqiqod olib borayotgan mutaxassislar geograflar, gidrologlar, demograflar o'z faoliyatlarida qo'llashi mumkin. Masalan geograflar sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'yicha ayrim turdagi ma'lumotlarni ajratib olishlari, demograflar aholining hududlar bo'yicha milliy tarkibi hamda shahar va qishloqlarda yashovchi aholining hududlar kesimida o'rganishda, gidrologlar suv obyektlarini toifalari yoki suv hajmi bo'yicha hududlar kesimida ma'lumot olishlari, kartograflar ijtimoiy-iqtisodiy kartalar tuzishda mavzuga doir obyektlarning (shifoxona, maktab, energetika obyektlari va hokazo) geografik joylashuvlarini tahlil qilishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berlyant A.M., Kartografiya//Moskva:Aspent Press.2002. 336 s
2. Boltayev T.X., Raxmonov Q., Akbarov M.S. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari//Toshkent: 2019. 274 b

3. Oxunov Z.D., Abdullayev I.O'., Ro'ziyev A.S., G'.Z.Yakubov. Ma'lumotlarni olish va integratsiyalash // Toshkent: 2015. 316 b
4. Shokirov Sh., Musayev I.M. Masofadan zondlash //Toshkent: 2015. 229 b